

ABDURAUF FITRATNING HATOTI VA IJODI, QATAG'ON QILINISH SABABLARI

Oltiboyeva Gavhar Nuraliyevna

Buxoro davlat universiteti Fizika matematika va axborot tehnologiyalari fakulteti Amaliy matematika yo'naliishi 1-kurs 1-1-PMK guruh talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14585079>

Annotatsiya. Abdurauf Fitrat – o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg va shoir, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili birinchi o'zbek professori. Jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori. U Turkiyada ta'lif olgan. Inqilopga qadar O'rta Osiyoni Rassiyadan ozod qilinishi harakatlarida faol qatnashgan, politsiya nazorati ostida bo'lgan. Turkiyadagi "Yosh turklar" harakatidan ilhomlanib, Buxoroda "Yosh buxoroliklar" partyasini tuzgan, uning ma'naviy rahnamosiga aylangan. Do'sti va malakadoshi Munzim bilan hamkorlikda buxorolik 70 nafar yosh turkistonliklarni Germaniyaning bir qator oliy ta'lif muassasalariga o'qishga yuborgan.

Kalit so'zlar: Yosh turklar, Yosh buxoroliklar, Qo'qon voqeasi, Munozara, Sayha, Sayyohi hindi, Qizil O'zbekiston, O'zbek adabiyotida chig'atoychilik, O'zbek adabiyoti namunalari.

ABDURAUF FITRAT'S MISTAKES AND CREATIONS, REASONS FOR REPRESSION

Abstract. Abdurauf Fitrat is an Uzbek historian, philologist, translator, writer, playwright and poet, one of the founders of the modern Uzbek language and literature, a prominent representative of Central Asian Jadidism, the first Uzbek professor. Jadidism is a supporter of the national enlightenment movement. He was educated in Turkey. Before the revolution, he actively participated in the liberation of Central Asia from Russia, was under police surveillance. Inspired by the "Young Turks" movement in Turkey, he founded the "Young Bukhara" party in Bukhara and became its spiritual leader. Together with his friend and colleague Munzim, he sent 70 young Turkistanis from Bukhara to study at a number of higher educational institutions in Germany.

Keywords: Young Turks, Young Bukhara people, Kokand incident, Debate, Sayha, Sayyohi hindi, Red Uzbekistan, Chigatayism in Uzbek literature, Examples of Uzbek literature.

РАБОТА И СОЗДАНИЕ АБДУРАУФА ФИТРАТА, ПРИЧИНЫ РЕПРЕССИЙ

Аннотация Абдурауф Фитрат – узбекский историк, филолог, переводчик, писатель, драматург и поэт, один из основоположников современного узбекского языка и литературы, первый узбекский профессор, известный представитель среднеазиатского модернизма. Джадидчик – сторонник национально-просветительского движения. Учился в Турции. До революции он активно участвовал в усилиях по освобождению Средней Азии от России и находился под контролем полиции. Вдохновленный движением «младотурков» в Турции, он основал в Бухаре партию «Молодая Бухара» и стал ее духовным лидером.

Совместно со своим другом и коллегой Мунзимом он отправил 70 молодых туркестанцев из Бухары на обучение в ряд высших учебных заведений Германии.

Ключевые слова: младотурки, младобухарцы, Коканский инцидент, дебаты, сайха, туристический индеец, красный Узбекистан, Чигатайлик в узбекской литературе, примеры узбекской литературы.

KIRISH: Abdurauf Fitrat 1886-yilda Buxoro shaxrida ziyoli oilasida tug'ilgan, adibning otasi savdogarchilik bilan shug'llangan bo'lib, 1918-yilgacha Qashqarda turib qoladi. Yosh Abdurauf asosan onasi Mustafo Bibi tarbiyasida qoladi, u 1908-1918- yillarda Turkiya dorilfununda o'qiyotganda uning zukko bilimdonligi professor o'qituvchilarini hayratga solidi.

Unga Fitrat—Donishmand tahallusini beradilar. Fitratning dastlabki maqolalari “Hikmat” jurnalida bosilgan. O'zi esa Rassiya imperiyasidan kelgan muhoxijirlar bilan aloqa bog'lagan.

Fitratning Usmonilar poytaxtida otkazgan to'rt yili Bolqon urushi va Yosh turklarning konstitutsiyaviy inqilobiga to'g'ri keladi. Fitrat o'qishni Istanbulda davom ettirib yurgan kezlarida, hamyurtlati bilan birgalikda “Buxoro ta'limi maorif jamiyat”ni tuzgan. Bu jamiyat buxoroliklarning o'zaro moddiy-ma'naviy uyishmasi vazifasini bajargan hamda Buxoro va Turkiston maorifining olg'a siljishiga doir bir qator ishlarni amalga oshirgan. Bu davrda Turkiya “Yosh turklar” inqilobidan mast davrni o'z boshidan kechirardi. Turkiyadagi bunday qilobiy muhit albatta yosh Fitratga ham ijobjiy tasir ko'rsatadi. U siyosat maydoniga shong'ib ketti. Bu yerda Fitrat Sharq adabiyoti, san'ati, tarixini chuqur va atroflicha o'rganadi. Ilg'or taraqqiyat parvar turka adabiyoti vakillari, turk adabiyoti orqali esa G'arb adabiyoti bilan yaqindan tanishadi. G'arb va Sharq madaniyati, adabiyotlari o'rtaсидаги farqlarni o'z ko'zi bilan ko'radi, uning sabablarini teranroq anglaydi.

Fitrat vataniga qaytgach, Buxoro jadidlarining tashkilotchilaridan biri sifatida xalqni ma'rifat va madaniyatdan bahramand qilish uchun astoydil kurashdi, xususan u Buxoroning turli tumanlarida o'qituvchilik qilib, jadidchilik g'oyalarini keng targ'ib etdi. 1915-yildan “yosh buxoriklar harakatining so'l qanotiga boshchilik qildi. 1916-yilga qadar buxorolik jadidlar yakdil va yagona jabha bo'lib ish olib brogan bo'lsalar, keyinchalik ular ikkiga bo'linib ketadilar.

Abdulvohid Burhonov boshchiligidagi jadidlarning bir qismi eski tarzda faqat ma'rifat-madaniyat tarqatish yo'lini tutgan bo'lsa, ularning boshqa bo'lagi Fitrat, Fayzulla Xo'jayev kabi chet mamlakatlarda o'qib kelgan yoshlar omma o'rtaSIDA marifat va madaniyat tarqatish bilan birga amirga qarshi kurashishni ham yoqlab chiqadilar. Bunday bo'linishning asosiy sabablari: birinchidan turkiston o'liasi, shu jumladan Buxoro amirligidagi ijtimoiy-iqtisodiy va siyosiy vaziyatning og'irligi, rus podshosi va amirlikning ikki yoqlama zulimkorlik siyosati.

Ikkinchidan, bolsheviklarning mahalliy xalq o'rtasida yurg'izgan tashviqot va targ'ibotlari tasiriga ishonuvchanlik. Uchinchidan mahalliy xalq vakillarining siyosiy vakumda saqlanganligi hamda ularning siyosat borasidagi g'oyaviy nazariy saviyasining yetarli darajada rivojlanmaganligi. Fitrat 1917-yilgi fevral voqealaridan so'ng jadidlarning buxorodagi ahvoli murakkablashgach, Samarqandga ko'chib borib 1917- yil apreledan 1918-yil artigacha chiqib turgan "Hurriyat" gazetasiga muharrirlik qiladi, yani bu gazetaning 27- sonidan 87-sonigacha bo'lган davrda.

Bu davrda gazeta ishlarini rivoirlantirish maqsadida Fitrat nashriyotiga O'rta Osiyo jadidligining darg'asi, muftiy Mahmudxo'ja Behbudiyni taklif etadi. Ayrim malumotlarga qaraganda Fitrat shu yillarda "Ittihodi taraqqiy" tashkiloti eski Buxorobo'limining raisi ham bo'lган. 1917-yil 27- noyabrda e'lon qilingan Turkiston Muxtoriyatini so'ngsiz mehr bilan qarshi oldi. Hatto 27-noyabrni "Milliy laylatulqadrimiz" deb atadi. Ammo uning bu quvonchi uzoqqa cho'zilmadi, 1918-yilning 19-20-fevralida Turkiston muxtoriyati bolsheviklar va armanlarning "Dashnaksutyun" partyasi tomonidan qonga botirildi. Bu voqeа tarixda "Qo'qon voqeasi" nomini olgan. 1918-yil martdagи Kolesov voqeasidan keyin u T oshkentga keldi. Dastlab Xadrada mакtabda, may- iyun oyalaridan boshlab Turkiston musulmon dorilfununi qoshida tashkil topgan dorulmualliminda til va adabiyotdan dars berdi. 1919-1920- yillarda Afg'oniston amirligining Toshkentdagi vakolatxonasida tarjimonlik qildi. Toshkentda u asosan ilmiy, ijodiy ma'rifiy ishlar bilan ko'proq band bo'ldi. Bir qator darsliklarni tuzdi, "Chig'atoy gurungi" nomli ijtimoiy-adabiy tashkilot tuzib, unda faol ishtirok etdi. 1920-yil 9-aprelda "tong" jurnalini tashkil etib, yosh ziyolilar avlodini millatparvarlik va vatanparvarlik ruhiyatida tarbiyalashga kirishdi. "Tong" jurnalining shiori bo'lган: "Miya o'zgarmaguncha boshqa o'zgarishlar negiz tutmas!" so'zлari Fitratning shu yillarda olib brogan faoliyatining maqsad-mohiyatinito'la ifodalaydi. Jurnalda "Chig'atoy gurungi" a'zolarining deyarli barchasi ishtirok etdi. Afsuski, jurnal ishi 3-sondan keyin to'xtab qoldi. Buxoro Xalq Sovet Respublikasi tashkil topishi bilan Fitrat 1921- yilda Buxoroga taklif qilinadi va shu yildanoq maorif noziri vazifasida ish boshlaydi. 1922-yilda xorijiya (tashqi ishlar) noziri, Xalq xo'jaligi Kengashi raisi, Markaziy ijroya Qo'mitasi raisi o'rribosari, Xalq nozirlari sho'rosi rasii o'rribosari, Hukumat plan vas meta tashkiliy hay'atining raisi, BXSR mehnat kengashining presidium a'zosi va boshqa lavozimlarida xizmat qildi. Ikki yil davomida Buxoro xalq Respublikasida ta'lrim vaziri va iqtisodiy rivojlanish kengashining rahbari sifatida faoliyat yuritgan. U shu davrda Buxoro Xalq Sovet Respublikasi mablag'lari hisobiga 70 nafarturkistonlik istiqbollik yoshlarning germaniyaga borib o'qishi,

Buxoroda Sharq musiqasi maktabining tashkil etilishi, fan va madaniyatga doir xalq qo'lida sochilib yotgan noyob qo'lyozmalarni to'plashda tashabbuskor bo'ldi. Fitratning sa'y-harakatlari bilan Buxoro Xalq Sovet Respublikasida turk (o'zbek) tili davlat tili deb e'lon qilindi.

Davlat teatri tashkil qilinib, bu teatrda ishlash uchun Toshkentdan Mannon Uyg'ur va Cho'lpon, vaqf ishlarini boshqarish uchun esa Munavvar Qori Abdurashidxonov taklif etildi.

Ammo 1923-yilda Yan Rudzutak boshchiligidagi maskvadan kelgan komissiya fitratni ishdan olib, Rassiyaga "chaqirib olgan" deb e'lon qildi va Fitrat 1923-1927- yillarda Moskvadagi Sharqshunoslik instituti (1921-yilgacha Sharq tillari institute deb nomlangan) da ishladi, ilm bilan shug'llandi. Leningrad davlat universiteti professorligiga saylandi. "Abulfayzxon", "Bedil", "Qiyomat", "Shaytonning tangriga isyoni" kabi asarlar yozib, chop ettirdi. 1927-yilning boshida Rassiyadan qaytgach, 1937-yilga qadar Samarqanddagi Oliy pedagogika instituti (hozirgi Samarqand Davlat universiteti) hamda Toshkentdagi Til va adabiyot institutida faoliyat ko'rsatdi.

Fitrat o'z hayoti davomida yuzlab ijtimoiy va publitsistik maqolalar o'nlab ijtimoiy-siyosiy va ilmiy risolalar yaratdi. U birgina turkistonda emas, Afg'oniston, Hindiston, Turkiya, Kavkaz, Volgabo'yni matbuotida ham faol ishtirok etdi.

Fitratning adabiy merosi rang-barang. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o'zbek adabiyotining yangi janr va turlar bilan boyishi, she'r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy muammolarning o'zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo'shdi. Fitrat ijodini shartli ravishda uch davrga bo'lish mumkin: 1-davr 1909-1926-yillarni o'z ichiga olib, Turkiya taassurotlaridan ilhomlangan holda jaded ma'rifatparvari sifatida ijod qilgan. 2-davr 1917-1923-yillarni qamrab oladi, bu davrda Fitrat milliy istiqlol g'oyalari bilan to'yingan asarlar yozadi. Ijodining 3-davri 1923-1937-yillarga oid hisoblanib, Sho'ro maxfiy xizmatining doimiy nazoratida bo'lgan Fitrat asosan ilmiy va pedagogic ishlar bilan shug'llanadi.

Fitrat zullisonayn adib bo'lib, adabiyotga shoir va adabiyotshunos sifatida kirib kelgan.

Istanbuldag'i to'rt yillik talim davomida faqat forsiy tilda ijod qilgan. Ko'p o'tmay u o'zini dramaturgiya va prozada ham sinab ko'rdi. U "Mulohaza" (dastlabki nomi "Hindistonda bir farangi ila buxorolik bir mudarrisning bir necha masalalar ham usuli jadid xususida qilgan munozarasi") asarini Turkiyaga borishdan oldin, 1905-1907-yillarda yaratgan. "Munozara" 1908-yilda, "Sayha" 1910-yilda, "Sayyohi hindi" 1913-yilda Istanbulda bosilib chiqqan. "Rahbari najot" va "Oila" 1915-1916-yillarda Bokuda nashr qilingan. Bu asarlarda o'sha davrdayoq xalq orasida keng tarqaldi. Horijiy tillarga ham o'girildi. Masalan, "Munozara" 1909-1914-yillar orasida turk, ozarbayjon tillarida, "Sayyohi hindi" rus tilida chop etilgan. "Rahbari najot"ni esa do'sti, shoir va noshir Abdulvohid Burhonov Sankt-Peterburgda nashrdan chiqqargan.

Fitratning mакtab o'quvchilariga mo'ljallangan "O'qu" qollamasи vatan, dunyo, tibbiyot, tabiiyot va gigiena singari massalalar, shuningdek, o'tmishda yashagan allomalar haqida tasavur beradi (nomalum sabablarga ko'ra, ushbu qo'llanmaning ikkinchi qismi yozilmagan).

Bulardan tashqari Fitrat o'zbek tilining grammatikasini o'rganish ishlarini boshlab bergen va shu soxa rivojiga katta hissa qo'shgan. U 1918-yilda Shokirjon Rahimiy va Qayum Ramazon bilan hamkorlikda "ona tili" darsligini yaratdi. 1921-yilda Toshkentda bo'lib o'tgan Til va imlo quriloyida Fitrat o'zbek tilining sofligini taminlash va rivojlantirishga qaratilgan bir qancha takliflarni o'rta ga tashladi. U 20-yillarda o'zbek tilining tabiatini o'rganishda davom etib, "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: "Sarf" (1924), "O'zbek tili qoidalari to'g'risida bir tajriba: "Nahv" (1925) darsliklarini yaratdi va bu darsliklar 1930-yilga qadar bir necha marta nashr etildi.

Olim o'zbek tili morfologiyasi va sintaksisiga bag'ishlangan bu asarlari bilan o'zbek tili grammatikasini ilmiy asosda o'rganish ishiga tamal toshini qo'ydi. Fitratning tilshunoslik soxasidagi katta xizmatlaridan yana biri uning 20- yillarda qadimiylar turkiy til, jonli xalq tili va shevalarga tayangan holda, ilmiy-adabiy muomalaga kirib kelayotgan yangi tushincha hamda hodisalarini ifodalash uchun o'zbek tilining lug'at fo'ndiga yangi so'zlar hamda atamalarni olib kirganligidadir.

Bundan tashqari Fitrat tarixshunoslik va sharqshunoslik soxalariga oid fors tilida maqola va risolalar ham yozdi, "Amir Olimxonning hukimronlik davri" shular jumlasidandir. 1921-yilda B. Soliyev va B. S. Sergeyev bilan birgalikda Buxoro amiriga qarashli nodir qo'lyozmalar, vaqf hujjatlarini yig'ish, ularga tartib va tavsif berish ishlarida ishtirok etdi. B. S. Sergeyev bilan birgalikda V.L. Vyatkin arxivdagi saqlangan qozilarga oid hujjatlarni o'rganib, rus tilida "казыйские документы XVI века" nomli kitobi 1937-yilda nashr ettirdi.

Fitratning san'atshunoslikka oid xizmatlari ham tahsinga sazavordir. U 1921-yil Buxoroda Sharq musiqasi maktabini tashkil etib, bu maktabning birinchi direktori lavozimida ishlaydi.

Maktabda mumtoz musiqa bilimdonlari bilan birga Viktor Uspenskiy singari musiqashunoslarni ham taklif qildi. U shu vaqt dan boshlab "Shashmaqom" kuylarini to'plash va no'taga yozib olish ishlariga rahbarlik qildi. Fitratning tashabbusi bilan ota Jalol va ota G'iyosdan Buxoro Shashmaqomi V.Uspenskiy tomonidan ilk bora notaga olinib, nashr etildi. Fitrat "Shashmaqom", "O'zbek musiqasi to'g'risida" maqolalari va "O'zbek klassik musiqasi va uning tarixi" risolasi bilan XX asr o'zbek musiqashunoslilik fanini boshlab berdi.

Fitratning otasi Abdurahimboy savdogar va sarrof bo'lган. Onasining ismi Bibijon (to'la nomi Nastarbibi, bazi manbalarda Mustafbibi) bo'lган. Onasi 1866- yilda tug'ilgan. O'g'li Abdurauf hibsga olingan vaqtda yani 1937-yilda u hayot bo'lган. Oilada Abduraufdan tashqari yana ikki farzand bo'lган: ukase Abdurahmon va singlisi. Singlisi Mahbuba Rahim qizi nomi bilan she'rlar yozgan, 1920-yillarning faol ayollaridan bo'lган. Ukasi Abdurahmon 1910-yilda Kogon bosmaxonasida harf teruvchi bo'lib ishlagan. Fitrat uch marta uylangan. Birinchi xotinidan ajrashgan. Ikkinci xotini vafot etgan. Uchinchi marta Buxorodagi Burxonovlar sulolasidan Fotima Burxonova (Mutal Burxonovning opasi)ga uylandi.

20-yillarning ikkinchi yarmidan boshlab vaziyat o'zgargan. Sovet davlati mustahkam o'mashib brogan sari erkin fikrlashlar kamayib bordi. Ziyolilarni ayniqsa jadidlarni qoralash boshlandi. Har qanday hodisaga sinfiy-partyaviy yondashish nuqtayi nazari paydo bo'ldi. 1929-yili "Qizil O'zbekiston" ro'znomasining 3-sonida J.Boybo'latov qalamiga mansub "O'zbek adabiyotida chig'atoychilik" nomli maqola nashr etilgan. Maqola fitratning "O'zbek adabiyoti namunalari" asariga tanqidiy ruhda yozilgan. Ya'ni Fitrat marksizmni inkor qilishda, o'tmishni ideallashtrishda, burjua millatchiligi g'oyalari tashviqotida ayblanadi. Maqola muallifi bo'lgan Fitrat va kitobiga so'zboshi yozgan Otajon Hoshim matbuotda qarshi javov raddiya bilan chiqadilar. 1930-yildan esa unga siyosiy ayblovlar qo'yila boshlandi. Yozgan bir qancha ishlari uning "aksilsho'roviy" faoliyatiga "ashyoviy dalil" sifatida tilga olingan. "Shsrq haqiqati ro'znomasining 1930-yilgi 180-, 182-, 183-sonlarida J.Boybo'latovning "O'zbekistonning adabiy merosi" bayrog'I ostidagi "panturkizm" sarlavhali maqolasi bosildi. J.Boybo'latov yana Fitratning iziga tushdi. 1923-yildagi ayblarini qozg'adi, sudga tortilmay qolganini eslatdi, "shoirni sinfiy dushman" deb elon qildi. "O'zbeklarning adabiy merosi" asarini "Qur'on"ni nashr qilish pioletariat ishiga qanchalik xiyonat bo'lsa, maskur "O'zbek adabiyoti namunalarining chop etilishi ham shunchalik jinoyatdir", degan xulosa chiqardi. Ushbu maqolaning ruscha tarjimadagi bir nusxasi keyinchalik Fitratni ayblovchi xudjat sifatida uning "jinoiy ishi"ga ilova qilingan.

Matbuotdagi ayblovlarga qaramasdan F.Xojayev 1923-yildagi singari do'stini yana bir marta saqlab qoldi. 1937-yilning 24-apreliga kelib Abdurauf Fitrat O'zbekiston prokurorining ko'rsatmasi bilan Davlat Xavfsizligi Boshqarmasi to'rtinchi bo'limining boshlig'i Davlat Xavfsizligi leytenant Og'abekov tomonidan hibsga olindi.

Fitrat ilg'or demokratik g'oya va fikirlari uchun ko'pchilik jadidlar qatorida shakkorlik va isyonkorlikda ayiblanadi. Chor ma'murlari esa uni mustamlakachilikka qarshi turganlikda ayblaydilar, kommunistik mafkura hukmron bo'lgan sho'rolar davrida esa, millatchilikda, panturkizm g'oyasi tarafdoi, "xalq dushmani" degan tuhmatlar bilan ayblanadi. Professor H.Yoqubovning hikoya qilishicha, Fitratni 1937-yilgacha uning do'sti Fayzulla Xo'jayev o'z himoyasiga olib kelgan. 1937-yilda ko'pchlik qatori Fitrat ham NKVD tomonidan qamoqqa olingan. Losif Stalining 1938-yil 28-martdagi "Otuvga e'lon qilinganlar ro'yhati"ga tushadi. Abdurauf Abdurahim o'g'li Fitrat 1938-yil 4-oktyabr kuni Toshkent shahrining hozrgi Yunisobod tumani Bozsuv qirg'og'idagi qatlghohida otib o'lidlidi. Uni o'linga mahkum qilish haqidagi sud qarori bir kundan keyin ya'ni 1938-yilning 5-oktyabrida imzolandi. 1963-yil losif Stalin vafotidan so'ng Fitrat nomi oqlandi.

REFERENCES

1. Fitrat. Turkistonda ruslar. "sharq yulduzi", 1992.
2. Fitrat. Tanlangan asarlar, ikki jildlik. "Ma'naviyat", 2001.
3. Fitrat. Najot yo'li. "Sharq". 2002.
4. G'aniyev.I, Fitratshunoslik, Buxoro, 1994;
5. Boltaboyev. H, Qatog'on qilingan ilm. "Xazina" 1996.